

KATTAQO'RG'ON SUV OMBORINING MIKROQILIMGA TA'SIRINI BAHOLASH

Fayzullayev Jaloliddin Karimovich

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

jaloliddin.fayzullayev95@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Kattaqo'rg'on suv omborining qurilishi tarixi, xo'jalikdagi hamiyati, suv ombor atrofidagi mikroqilimga ta'siri, mavsumlar bo'yicha suv balansining o'zgarishi, yog'inlar va bug'lanish miqdori hamda suv omborning atrof-muhitga bo'layotgan ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, tuproq, o'simlik, suv ombor, daryo, kanal, mikroqilim, suv balansi, yog'inlar, filtratsiya, bug'lanish, shudring, namlik.

KIRISH. Jahonda daryolar oqimini suv omborlari va yirik suv olish inshootlari yordamida boshqarish suv resurslaridan kompleks foydalanishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanmoqda. Tarixiy jarayonlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, suv obyektlari insoniyat taraqqiyotida muhim rol o'ynab kelgan. Bir tomondan suv toshqinlari, qurg'oqchilik, daryolar, ko'llar va dengizlar rejimining o'zgarishi halokatlar va katta ijtimoiy-iqtisodiy zararlarga sabab bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan, suv obyektlari qishloq xo'jaligi, energetika, sanoat va iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlab kelmoqda. Insonlar o'z faoliyatini qadimda daryolar, ko'llar va dengizlar tabiiy sharoitiga moslashtirgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ular daryolar va boshqa obyektlar rejimini o'z faoliyatiga moslab o'zgartira boshladi. Ayniqsa arid iqlimli mintaqalarda daryo oqimini tartibga solish juda muhim hisoblanadi. Daryoning tabiiy oqim hajmini suv iste'molchilari talabiga moslashtirish suv omborlari orqali amalga oshiriladi.


Olingan natijalar muhokamasi. Kattaqo'rg'on suv omborining to'liq suv sig'imi 900 mln m³ bo'lib, shundan foydali suv sig'imi 840 mln m³ teng. Dengiz sathida 509 metr balanda joylashgan suv omborning umumiy maydoni 79,5 km² ga teng. Kattaqo'rg'on suv ombori Zarafshon daryosinng o'rta oqimida joylashgan bo'lib, janubdan shimolga tomon nishabligi pasayib boradi. Janubiy va janubi-g'arbiy qismi Ziyovuddin-Zirabuloq

tog'larining shimoliy etaklariga to'g'ri keladi va bu yerda dengiz sathidan balandlik 530-540 metrga yetadi. Shimoliy qismi Kattaqo'rg'on shahrigacha boradi va shimoliy qismi to'g'on bilan to'silgan. Shimoliy qismining dengiz sathidan mutlaq balandligi 490-500 metrga yetadi.


Kattaqo'rg'on suv omborining mikroiqlimga ta'sirini baholashda Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasida mavjud ma'lumotlardan foydalanildi (1-2-3-grafiklar).

1-grafik

Kattaqo'rg'on suv ombori suv balansida yog'in, bug'lanish va filtratsiya miqdori (2015 W, mln. m³)




Har bir suv havzasi atrof-muhitga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, suv omborlar ham atrof-muhit iqlimiga yetarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Kattaqo'rg'on suv ombori joylashgan hududning asosiy suv havzasi aynan Kattaqo'rg'on suv ombori hisoblanadi. Shu sababli suv omborning atrof-muhit iqlimiga ta'siri sezilarli darajada. Arid mintaqada joylashgan bo'lishiga qaramasdan iqlimning yil davomida mo'tadillashib turishiga ta'sir ko'rsatadi. Suv ombor yuzasidan bo'ladigan bug'lanish hisobiga shu hududda suvning aylanishi ko'payadi. Suvning aylanishi ko'pincha yog'in, tuman, qirov, namlikning oshishi tarzida namoyon bo'ladi. Buning hisobiga esa bahor va kuz fasllarining ushbu hududda uzoqroq davom etishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida ushbu havzada efemer va efemeroid o'simliklarning vegetatsiya davri uzoqroq davom etishiga sabab bo'ladi. Atrofdan namlikning oshishi va haroratning mo'tadillashishi hisobiga o'simlik turlari ko'payadi. Shu bilan bog'liq ravishda hayvonot dunyosi turlari va soni o'zgaradi.



2-grafik. Kattaqo'rg'on suv ombori va Samarqand shahri hududida havo namligi miqdori (2020 %).

Kattaqo'rg'on suv ombori suv balansida suv yuzasidan bo'ladigan bug'lanishning ta'siri katta. Bundan tashqari suv ombor atrofidagi hududlarda yer osti suvlari sathi yuqori bo'lganligi sababli tuproq yuzasidan bug'lanish miqdori ham sezilarli darajada yuqori. Arid iqlimli hududda joylashganligi va yilning ko'p qismida haroratning yuqori bo'lishi natijasida bug'lanish miqdori

5-7 mln m³ ga yetishini ko'rishimiz mumkin (1-grafik).



3-grafik. Kattaqo'rg'on suv ombori va Samarqand shahri hududida yog'ingarchilik miqdori (2020 mm). Haroratning yuqoriligi va yil davomida bulutli kunlarning kam bo'lishi suv ombor atrofidagi hududlarning yer osti suvlarini bug'lanishiga sabab bo'ladi. Bu ayniqsa janubiy qismlarida seziladi. Kattaqo'rg'on suv ombori arid iqlimda joylashganligi va haroratning yil davomida yuqori bo'lishi sababli

suv ombor yuzasidan bo'ladigan bug'lanish miqdori katta. Kattaqo'rg'on suv omboriga qaraganda dengiz sathidan balandroqda joylashgan Samarqand shahri iqlim ko'rsatkichlari bilan solishtirilganda shuni kuzatishimiz mumkinki, Samarqand shahriga nisbatan suv ombor hududida yog'in kam bo'lishiga va haroratning yuqori bo'lishiga qaramay havo namligi yil davomida yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida suv ombor ushbu hududni

namlik bilan ta'minlab turishi va haroratning mo'tadillashib turishiga ta'sir ko'rsatadi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джамалов Р.Г., Сафронова Т.И. - Ресурсы подземных вод: их изменение под влиянием климата и распределение по странам мира в начале XXI века // Известия РАН. Серия географическая. – 2010. – №5. – С. 52-60.
2. M.R.Ikramova. Suv omborlari gidrologiyasi // O`quv qo`llanma. – Toshkent, 2019. "Baktriya Press", 10-b.
3. Ж.Файзуллаев. Оценка воздействия осадков, испарения и фильтрационных элементов на окружающую среду при формировании водного баланса Каттакурганского водохранилища "Экономика и социум" №12(115) 2023.,.
4. F.A.Gapparov, D.V.Nazaraliyev, S.R.Mansurov, Suv omborlaridan foydalanish // Darslik. – Toshkent, 2019. 103-b.
5. Raxmatullayev A., Baratov H., Bekqulov I., Fayzullayev J. Arid iqlimli O`rta Zarafshon vodiysining grunt suvlar sifatiga inson xo`jalik faoliyatining ta`siri. Cho`llanish muammolari: dinamika, baholash, yechim. Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya. Samarqand 2019 13-14-dekabr. 133-135-b.
6. Islamova Z.B., Gafurova L.A., Madrimov R.M. Current condition and usage of soil cover around kattakurgan reservoir. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QMDYT> .Vol. 3 No. 5 (2022): wos. –P.1927–1932.